



# DEHQON XO‘JALIKLARI VA AHOLINING TOMORQA XO‘JALIKLARINI SHAKLLANISH VA RIVOJLANТИRISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

*Ochilova Nargiza Akramovna*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

*“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)*

Mamlakatimizda dehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklarining shakllanishi va rivojlanishi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish siyosatini amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liq. Mustaqillikning dastlabki yillarida butun sobiq ittifoq hududlariga xos bo‘lgan holda O‘zbekistonda ham oziq-ovqat inqirozi yuzaga keldi. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida aholining o‘zini-o‘zi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi.

Umuman olganda, respublikada dehqon xo‘jaliklari va tomorqachilik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini shartli ravishda besh bosqichga bo‘lgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq (1-jadval).

**Islohotlarning dastlabki bosqichi** 1989—1991-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda mamlakat qishloq xo‘jaligini tubdan isloh qilish, uning barqarorligini ta’minlash va ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki asoslari yaratildi.

**Islohotlarning ikkinchi bosqichi** 1992—2000-yillarni qamrab oladi. Bu davrda “Yer kodeksi”, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlar va tegishli hukumat qarorlari qabul qilindi. Bunday huquqiy bazaning yaratilishi iqtisodiy islohotlarni chiqurlashtirishga mustahkam zamin yaratdi. Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning bozor munosabatlariga mos keladigan shirkat, fermer va dehqon xo‘jaliklari ustuvorligi belgilandi.

**Islohotlarning uchinchi bosqichi** (2001—2009-yillar) 2001-yildan boshlangan bo‘lib, bu davr mobaynida qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqaruvchilarining haq-



huquqlari himoyasi kafolatlandi, mahsulot ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligini kengaytirishga yanada katta e'tibor berila boshlandi, davlat buyurtmasi asosida yetishtirilayotgan mahsulotlarga narx belgilashda dunyo bozori me'yorlariga mos keluvchi tizim shakllantirildi.

**Islohotlarning to‘rtinchi bosqichi** (2010—2017-yillar). Mazkur vaqt oralig‘ida asosiy e’tiborni shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida chorvachilik sohasini rivojlantirishga qaratildi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikrokreditlar ajratish tartibi takomillashtirildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-martdagi PQ-2505-son “2016—2020-yillarda meva-sabzavot va go‘sht-sut mahsulotlarining xom-ashyo bazasini yanada rivojlantirish, ularni qayta ishlashni chuqurlashtirish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish va eksport qilishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yerlarida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining sifat va hajm jihatidan oshirilishiga qaratilgan.

### 1-jadval.

#### O‘zbekiston Respublikasida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish bosqichlari<sup>1</sup>

Bosqichla r	Qabul qilingan huquqiy-me’oriy hujjatlar	Maqsadi	Belgilangan vazifalar	Erishilgan natijalar
1-bosqich (1989 – 1991- yillar)	O‘zbekiston Respublika-sining “Mulkchilik to‘g‘risida”, “Yer to‘g‘risida”,	Mulkni davlat ta-sarrufidan chiqarish va xususiylashtir ish	Mulkdorda yerga egalik hissini rivojlantirish	Xususiy mulkdor-lar safi kengaydi, qishloq aholisi-ning

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



	“Kooperativlar to‘g‘risida”gi qonunlari			moddiy ahvoli yaxshilandi
2-bosqich (1992 – 2000- yillar)	O‘zbekiston Respublika-sining “Ijara to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar to‘g‘risi-da”gi qonunlari va Yer kodeksi	Tajribalarni o‘rga-nish, ijara tizimini keng yo‘lga qo‘-yish, yerga bo‘lgan munosabatni yax-shilash	Dehqon xo‘jalik-lari rahbarlarini o‘qitish, rivojlan-gan mamlakatlar bilan tajriba alma-shishni tashkil qilish	Bozor iqtisodiyoti- dagi islohotlarni chuqurlashtiri shga xizmat qiluvchi huquqiy asos to‘la yaratildi
3-bosqich (2001— 2009- yillar)	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi korxo-nalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	Qishloq xo‘jaligida tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklari faoliyatini intensiv rivojlantirish, qish-loq aholisining moddiy manfaat- dorligini va yashash	Qishloqda ishlab chiqarish dehqon batlarini takomil- lashtirish, q/x ishlab chiqarishini bosh- qarishning bozor tamoyillariga mos keladigan	Qishloq xo‘jaligida barqaror o‘sish kuzatildi. Dehqon, fermer va tomorqa yer egalariga mah-sulot yetishtirish uchun erkinlik yaratildi, imtiyozli



		tarzini yuksaltirish	tashkiliy tuzilmasini yaratish	kreditlar hajmi oshdi
4-bosqich (2010— 2017- yillar)	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 10-oktabrdagi PQ- 3318-sod “Fer-mer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora- tadbirlar to‘g‘ri- sida”gi qarori	Tomorqa xo‘jaligi faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtir ish va uni rivojlantirish tashkiliy chora- tadbirlar to‘g‘ri- sida”gi qarori	Moddiy- texnik ba-zani mustahkam- lash, mahsulotlar- ning hosildor nav-larini yetishtirish	Yerning unumdo-rlik darajasi oshi- rildi, mahsulotlar- ning sifati va hajmi ko‘paydi
5-bosqich (2018- yildan hozirga qadar)	O‘zbekiston Respublikasi Va-zirlar Mahkamasining “Dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqa yer uchastkalaridan foydanish sa- maradorligini yanada oshirishga doir chora- tadbirlar to‘g‘risi- da”gi qarori, O‘zbekiston Res-	Dehqon xo‘jaliklari samaradorligi ni oshirish, shuning-dek, yer va suv resurslaridan foy- dalanishni yaxshi-lash, dehqon xo‘- jaliklarining	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarin ing yangi navlari yara- tish, ishlab chiqa-rish jarayonlariga innovatsion yonda-shish	Iqtisodiy ko‘rsat- kichlar sezilarli oshirildi, “Tomor-qa xizmati” MChJ-lari faoliyati tako- millashtirildi



	publikasining “Tomorqa xo‘ja-ligi to‘g‘risida”gi hamda “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlari	moli-yaviy va iqtisodiy holatini mustah- kamlash		
--	--	--	--	--

**Islohotlarning beshinchi bosqichi** (2018-yil va undan keyingi davr). Har bir sohada faoliyat jarayoni doimiy ravishda yangilanib borishi natijasida jamiyatda rivojlanish aks etadi. 2017—2020-yillarni qishloq xo‘jaligida ham innovatsiyalar bosqichi, deb atash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 119-son qarorining asosiy maqsadi, dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqasi uchun ajratilgan yer maydonlaridan yanada samarali foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni eksport qilish hajmlarini keskin oshirish, aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini ko‘paytirishdan iborat<sup>2</sup>. Jumladan, qishloq joylarida istiqomat qiluvchi har bir oilada kamida 100 boshdan parranda boqish, limon yetishtirish uchun issiqxonalar tashkil etish aholining shaxsiy daromadlari oshishiga va ijtimoiy ahvoli yaxshilanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktabrda qabul qilingan PF-5199сон “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2017-yil 10-oktabrda PQ-3318-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvgaga chidamli, eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 119-son Qarori 2017-yil 4-mart.



Qarorining maqsadi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash, fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini hamda amalda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-oktabrda qabul qilingan PQ-3318-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish ishlarida, shu jumladan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda hamda shartnomalar tuzishda, mahsulotlarni tashqi bozorlarga eksport qilishda har tomonlama ko‘maklashishga, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqiy savodxonligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining boshqa tashkilotlar bilan kooperatsiyasini tashkil etish va kengaytirish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga qo‘llash, qishloq joylarida aholining dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish, ularning ekin maydonlaridan samarali foydalanish, shaxsiy manfaatdorligi va mas’uliyatini oshirish<sup>3</sup> kabi vazifalar qarorda o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-martdagি 205-son “Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori esa dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqa yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, aholi bandligini ta’minlash va tomorqa yer uchastkalaridan olinadigan daromadlarni yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish

<sup>3</sup> “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3318-son qarori. 2017-yil 10-oktabr.



bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroridan asosiy maqsad, fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining bu sohadagi vakolatlarini kengaytirish va faol ishtirokini ta’minlashdan iborat.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ilgari surilayotgan aholi orasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mamlakat qishloq xo‘jaligida tomorqa xo‘jaligidan maqsadli foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlarda aynan dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalariga moliyaviy yordam berish, ularga zarur mablag‘larni imtiyozli va uzoq muddatli, ular uchun qulay shartlarda kreditlar shaklida ajratishga ham katta e’tibor berib, amaliyotga joriy etilgan.

Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mamlakatda tomorqa xo‘jaligidan samarali foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan huquqiy hujjatlarda dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalariga moliyaviy ko‘mak berish, ularga zarur mablag‘ni imtiyozli va ular uchun qulay shartlarda kreditlar ajratishga ham e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, ushbu qaror bilan fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi<sup>4</sup> tashkil etildi.

Jamg‘arma mablag‘lari bir martalik ajratilgan 500 milliard so‘m hamda auksion savdolarida fuqarolarga yer uchastkalarini sotishdan tushadigan tushumning 10 foizi, jamg‘armaga yuklangan vazifalarni bajarish uchun jalb qilinadigan xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat tashkilotlari va boshqa donorlarning kreditlari va grantlari hisobidan shakllantirilishi belgilandi.

Bu mablag‘lar bugungi kunda, asosan, fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga, ular faoliyatini yanada rivojlantirish, kredit resurslaridan foydalanishni kengaytirish sohasi va yer egalarining innovatsion

<sup>4</sup> Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3318-son qarori. 2017-yil 10-oktabr.



faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yangi turdagи qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni rag'batlantirish, shuningdek qishloq xo'jaligida yangi samarali texnologiyalarni joriy etishga sarflanmoqda.

Xususan, 2020-yilda ekin ekish, ixcham issiqxona qurish, parrandachilik, chovvachilik va boshqa yo'nalishlar uchun 58,6 milliard so'm va suv ta'minoti og'ir joylarda sug'orish quduqlari qazish uchun 16,8 milliard so'm jamg'arma mablag'laridan ajratilishi fermer, dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa yer egalarini uchun iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.

Bundan tashqari, Covid-19 pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning oshib borishi tomorqa yer egalarini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash yanada obyektiv zaruriyatga aylandi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu borada davlat ko'magini joriy etishga qaratilgan "Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda aynan oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va undan yuqori hosil olishda yer osti suvlari zaxiralaridan foydalanish orqali ekin ekilmay qolayotgan mavjud yer maydonlarini o'zlashtirish ishlariga davlat ko'magi berilishi<sup>5</sup> ko'plab tomorqa yer egalarining asriy orzularini amalga oshishiga xizmat qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Endilikda foydalanishdan chiqib ketgan va yer osti suvlari zaxirasi mavjud bo'lgan yerkarni foydalanishga kiritish, ularni qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun aholiga imtiyozli shartlar asosida ajratib berish yo'lga qo'yildi.

Har bir tumanda foydalanishga kiritilgan yer maydonlari dehqon va tomorqa xo'jaligi sohasida bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan, birinchi navbatda, ijtimoiy

<sup>5</sup> "Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4700-son Qarori. 2020-yil 1-may.



himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga 1 gektargacha dehqon xo'jaligini yuritish uchun, istisno tariqasida, 10 yilgacha muddatga ijaraga berilishi yoki tajriba-sinov tariqasida mahalliy tadbirkorlik subyektlariga barcha xarajatlarni oldindan to'lash sharti bilan 5 gektargacha bo'lган yer maydonlarini 10 yilgacha muddatga ijara huquqining elektron auksion asosida sotilishi belgilandi.

Ushbu yer maydonlari talabgor, tashabbuskorlarga ijara shartnomasi asosida beriladi va olingan yer maydonlarida suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash, sabzavot, poliz, kartoshka, dukkakli va moyli ekinlarni ekish, bog' va tokzorlar barpo etish ishlari ustuvor qilib belgilandi.

Yerdan maqsadli foydalangan tadbirkorlik subyektlariga yerdan foydalanish muddatini uzaytirishda ustuvorlik huquqi ham beriladi.

Qarorga ko'ra, yer egalariga ijaraga beriladigan yer maydonlarida yengil konstruksiyyadagi dala shiyponi va sug'orish inshootlarini joylashtirishga ruxsat beriladi. Ushbu yer maydonlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun xalqaro kredit agentliklari kredit liniyalari hisobidan kreditlar ajratiladi.

Shu bilan birgalikda, shaxsiy tomorqalardan samarali foydalanishni rag'batlantirish, dehqonlarimizga jahon andozalari darajasida huquqiy kafolatni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-apreldagi O'RQ-680-son «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» va O'RQ-681-son «Tomorqa xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlari qabul qilindi.

Qonunda belgilanganidek, tomorqa xo'jaligini yuritish tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi hamda tomorqa xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilinmaydi. Bundan tashqari, tomorqa xo'jaligida faoliyat yuritayotgan shaxs o'z faoliyatini o'zini-o'zi band qilish tariqasida rasmiylashtirishi mumkinligi, ular fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga a'zolik badali to'lamagan holda a'zo bo'lishi qayd etilgan. Qonundagi tomorqa yer uchastkalarida yengil konstruksiya issiqxona qurish, bunda davlat organlarining, shu jumladan arxitektura-qurilish, ekologiya, sanitariya-gigiyena, yong'inga qarshi kurash organlarining roziligi talab



etilmasligi kabi ko‘plab normalar tomorqa yer egalari mehnatini rag‘batlantirishga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish lozimki, fikrimizcha, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer maydonlari faoliyatini rivojlantirish vazifalarining qo‘yilishi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash asosida ular faoliyatining samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatining rivojlanishini shartli ravishda 5 bosqichga bo‘lgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalari faoliyatining 1-bosqichi 1989–1991-yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligida xususiylashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga katta e’tibor qaratildi va natijada mulkdorlar safi kengaydi, qishloq aholisining moddiy ahvoli yaxshilandi;
- 1992–2000-yillarni o‘z ichiga olgan rivojlanishning 2-bosqichida bozor iqtisodiyotidagi islohotlarni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi huquqiy asos ishlab chiqildi;
- 2001–2009-yillarni qamrab olgan 3-bosqichda qishloq xo‘jaligida tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklari faoliyatini intensiv rivojlantirish, qishloq aholisining moddiy manfaatdorligini va yashash tarzini yuksaltirishga e’tibor qaratildi;
- dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini rivojlantirishning 4-bosqichida 2010–2017-yillar davomida tomorqa xo‘jaligi faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi;
- 2018-yildan keyingi davrni qamrab olgan 5-bosqichda dehqon xo‘jaliklari samaradorligini oshirish, shuningdek, yer va suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash, dehqon xo‘jaliklarining moliyaviy va iqtisodiy holatini mustahkamlashga e’tibor qaratilmoqda.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvgaga chidamli, eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 119-sون Qarori 2017-yil 4-mart.
2. "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3318-sон qarori. 2017-yil 10-oktabr.
3. Prezidentining "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3318-sон qarori. 2017-yil 10-oktabr.
4. "Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4700-sон Qarori. 2020-yil 1-may.